



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2454-1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 10.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

### International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Ilashov Shohjahon Xurshid o'g'li<sup>1</sup>,  
Ibrohimova Mohinur Hamidullo qizi<sup>1</sup>,  
Xusanov Saydulloxon Ilyosxon o'g'li<sup>2</sup>  
Andijon davlat pedagogika instituti<sup>1</sup>  
Andijon davlat universiteti<sup>2</sup>  
Uzbekistan

### DIATOM SUVO'TLAR(BACILLARIOPHYTA)NING SISTEMATIK O'RNI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATLI VAKILLARI

**Abstract:** This article provides information on the morphology, anatomy, systematics, ecology, characteristics and importance of the division of diatoms. Diatom algae have a clear superiority over other algae in terms of distribution and have adapted to live in different conditions of the earth's surface. One of the distinctive features of its structure is that it is covered from the outside with a shield with a coccoid structure.

**Keywords:** epitheca, hypotheca, chromophore, carotene, vegetative, sexual, auxospore, sutures.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Diatom suvo'tlar bo'limining morfologiyasi, anatomiyasi, sistematikasi, ekologiyasi, o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Diatom suvo'tlar tarqalish jihatdan boshqa suv o'tlardan yaqqol ustunlik qilib, yer yuzining turli sharoitlarida

yashashga moslashgan. Tuzilishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri kokkoid tuzilishga ega bo'lgan qalqon bilan tashqi tomondan qoplangan.

**Kalit soʻzlar:** epiteka, gipoteka, xromofor, karotin, vegetativ, palla, auksospora, choklar.

**Аннотация:** В статье представлены сведения о морфологии, анатомии, систематике, экологии, особенностях и значении подразделения диатомовых водорослей. Диатомовые водоросли имеют явное превосходство над другими водорослями по распространению и приспособились к жизни в разных условиях земной поверхности. Одной из отличительных особенностей его строения является то, что он снаружи покрыт щитком кокковидного строения.

**Ключевые слова:** эпитека, гипотека, хромофор, каротин, вегетативная, половая, ауксоспора, швы.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Pashov Shohjahon Xurshid o'g'li, I. S. X. o'g'li, Ibrohimova Mohinur Hamidullo qizi, I. M. H. qizi, & Xusanov Saydulloxon Ilyosxon o'g'li, X. S. I. o'g'li. SYSTEMATIC POSITION, CHARACTERISTICS AND IMPORTANT REPRESENTATIVES OF DIATOM ALGAE (BACILLARIOPHYTA). Universal International Scientific Journal, 1(9), 64–69. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1214>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14360471>

Diatom suvoʻtlari boʻlimi turlarining xilma-xilligi va tarqalishi jihatidan boshqa suvoʻtlari ichida yetakchi oʻrinda turadi. Ularning vakillari chuchuk va shoʻr suvlardan tashqari tuproqda, suv sachratqilarida, namlanib turadigan qoyatoshlarda ham keng tarqalgan. Diatom suvoʻtlari tuzilishining oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, kokkoid strukturaga ega boʻlgan hujayralari maxsus qumtoshli qobiq bilan oʻralgan. Bunday qobiq qalqon (sovut) deb ataladi. Qalqon pektinli matriksdan tuzilgan boʻlib, skelet moddasi sifatida esa kremniy kislotasi toʻplanadi. Qalqon ikki boʻlakdan (palladan) iborat. Ular

quticha va qopqoqchaga oʻxshab biri ikkinchisiga kirib turadi. Pallasining katta boʻlagi epiteka, kichigi gipoteka deb ataladi. Diatom suvoʻtlari mikroskop ostida ikki xil shaklda koʻrinadi. Agarda qalqon pallalarda yon tomoni bilan turib qolgan boʻlsa, „belbogʻ“ tomonidan koʻrinish deb ataladi. Aksincha, pallalarining biri ostida, ikkinchisi ustida boʻlsa, „palla“ tomonidan koʻrinishi hisoblanadi. Ularning qumtoshli pallalari tashqi muhit bilan modda almashinishi uchun har xil labirintsimon teshikchalar, gʻovak va zich qismlar hosil qilib joylashgan. Bular esa pallalardan optik zich va gʻovak boʻlaklarni

yuzaga keltirib, palla ustida xilma-xil chiziq, punktir va nuqtalar shaklidagi „naqsh“larni yuzaga keltiradi. Diatom suvo‘tlarining sistematik o‘rnini aniqlashda ana shu naqsh va chiziqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Diatom suvo‘tlarining pallalari ichini hujayra qobig‘i bo‘ylab tarqalgan sitoplazma egallagan bo‘lib, uning o‘simtalari palla chokklariga kirib turadi (chokli vakillarida). Ko‘pchilik vakillarida bir-ikkita plastinkasimon xromatofori bor. Umuman, ulardagi xromatoforlar shakli jihatidan xilma-xil bo‘lishi mumkin. Sentriksimonlarda ko‘p sonli va mayda, patsimonlarda yirik va bo‘lakli bo‘ladi. Xromatofor tarkibida bir qancha karotinoidlar – diatomin, beta, gamma – karotin, fukoksantin, neofukoksantin, diadinoksantin, diatoksantinlar uchraydi. Xlorofillardan asosan xlorofill C1 va C2 uchraydi, ba‘zi vakillarida C3 ham topilgan (primneziofitlar va pelagofitslilar).

Diatom suvo‘lari vegetativ va jinsiy yo‘l bilan ko‘payadi. Vegetativ ko‘payishda pallalari asta-sekin ajralib, hujayra ikkiga bo‘linadi. Hosil bo‘lgan yangi hujayralarining biri epitekani, ikkinchisi esa gipotekani saqlab qoladi. Ikkala yangi hujayra o‘ziga gipoteka sintezlaydi. Natijada gipoteka pallasini o‘zida saqlab qolgan hujayrada ona hujayradan olingan gipoteka sintezlanadi. Shuning uchun yosh hujayralarning biri ikkinchisidan pallasining ikki tomonidagi gardish qalinligida

kichikroq bo‘ladi. Ana shunday bo‘linib ko‘payishning ketma-ket qaytarilishi hujayraning ancha kichiklashib ketishiga olib keladi. Hujayraning kichiklashib borishiga chek qo‘yuvchi va asl kattaligini tiklovchi omil auksospora hosil qilib jinsiy ko‘payish hisoblanadi. Ushbu jarayon diatom suvo‘tlarining har xil sistematik guruhlarida o‘ziga xos amalga oshadi. Patsimonlar sinfiga mansub vakillarining jinsiy ko‘payishi desmidiya suvo‘tlaridagi matashishni eslatadi. Ikkita hujayra bir-biriga yaqinlashib, umumiy shilimshiq bilan qoplanadi va pallalari ochiladi. Har bir hujayra yadrolari reduksion bo‘linadi (ko‘pincha sitoplazma ham bo‘linadi) va ularning biri nobud bo‘ladi. Hayotchan yadrolar o‘zaro qo‘shilib, auksospora (o‘suvsuchi spora)ga aylanadi. Auksospora ushbu turga xos kattalikkacha o‘sgach epitekani, keyin gipotekani sintezlaydi. Natijada hujayra birlamchi kattaligini tiklaydi va yana vegetativ ko‘payishga o‘tadi. Sentriksimonlar sinfiga mansub vakillarda jinsiy ko‘payishi oogamiya yo‘li bilan amalga oshadi. Bunda ayrim vegetativ hujayralarining yadrolari ikki martadan bo‘linib, to‘rttadan spermatozoid va tuxum hujayralar hosil qiladi. Tuxum hujayralarning uchtasi nobud bo‘lib, bittasi spermatozoidlar bilan otalanadi va auksosporani vujudga keltiradi. Diatomtoifa suvo‘tlarining sinflarga bo‘linishiga asos qilib

ularning pallalarining radial tuzilishi (sentriksimonlar sinfi) va ikki tomonlama simmetrikligi (patsimonlar sinfi) olingan. Patsimonlar sinfining keng tarqalgan tipik vakillaridan biri pinnulariya (Pinnularia), u palla tomonidan ellips yoki lansetsimon, belbog' tomonidan esa to'rtburchak cho'ziq quticha shaklidagi, chuchuk suvlarda, ko'pincha suv ostiga cho'kkan holda yashovchi bir hujayrali suvo'tidir. Bittasi markazida, ikkitasi palla uchlarida joylashgan, po'st ostki qismining qalinlashishidan hosil bo'lgan tugunchalari, ular orasini birlashtirib turuvchi yoriqchalar (choklar) va palla chetidan markaziy qismiga qarab taralgan „qobirg'a“ chiziqlari pinnulariyani palla tomonidan naqshli bo'lib ko'rinishiga sabab bo'ladi. Pallasidagi chok va teshikchalari pinnulariya protoplazmasini tashqi muhit bilan bog'laydi va protoplazmasi substratga surilib, uning oqimiga qarshi harakat qiladi. Pinnulariyaga o'xshash patsimon tuzilgan navikula (Navicula), simbella (Cymbella) va sinedra (Synedra) ham keng tarqalgan. Ular tuproqda va suv ostida yashovchi vakillar hisoblanib, palla uchlarining ingichkaligi, qayiqchasimon yoki tayoqchasimon ko'rinishda bo'lishi bilan pinnulariyadan farq qiladi. Sinedraning choklari va tugunchalari bo'lmasligi sababli tashqi muhitga protoplazmatik suyuqlik ajratib chiqarmaydi.

Diatom suvo'tlarining sentriksimonlar sinfiga mansub vakillaridan biri siklotella (Cyclotella) bo'lib, u chuchuk va sho'r suvda hayot kechiradi. Siklotellaning linzaga o'xshash pallasi radial naqshli bo'ladi. Diatom suvotlari bo'limi 11 ta tartib, 300 ga yaqin turkum va 25 mingga yaqin turlardan tashkil topgan. Ammo ayrom tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ularning soni 200 mingga yetishi mumkin. Eng yirik turkumi esa Navicula turkumi bo'lib, tarkibiga 10 mingdan ziyod turni birlashtiradi.

Sentriksimonlar (Centrophyceae) sinfi va uning asosiy vakillari.

Bu sinf vakillari dengiz va okeanlarda keng tarqalgan bo'lib, plankton xolda hayot kechiradi va organik moddalar hosil qilishda asosiy manba hisoblanadi. Ular 1 xujayrali va koloniyali organizmlar bo'lib, hujayrasi radial va simmetrik tuzilganligi bilan farqlanadi. Sinf vakillarida chok va tuguncha bo'lmaganligi sababli, faol harakatlana olmaydi. Jinsiy ko'payishi oogamiya.

Sentriksimonlar sovutining shakli va tavaqalarining maxsus belgilari bo'yicha 4 ta tartibga bo'linadi.

1. Kossinodisklilar (Coscinodiscales)
  2. Talassiozirlilar (Talassiosirales)
  3. Melozirlilar (Melosirales)
  4. Hetoserotlilar (Chaetoserotales)
- Kossinodisklilar tartibiga chuchuk suv

havzalarida va dengizlarda tarqalgan va plankton hayot kechiruvchi *Cyclotella* kiradi. U zanjirsimon koloniya hosil qiladi. Hujayrasi dumaloq, doirasimon qutichaga o'xshash. *Coscinodiscus* radial yoki tangential shakldagi hujayraga ega. Tavaqasida tartibsiz joylashgan nuqtalar yoki areolar, ba'zi turlarida tavaqaning chetlarida tukchalar bo'ladi.

Melosira turkumi vakillari chuchuk va sho'r suvlarda bentos va plankton xolda tarqalgan. Hujayrasi silindrsimon yoki bochkasimonquticha ko'rinishida bo'lib, tavaqalari shilimshiqqlanib, ipsimon koloniya hosil qiladi.

*Chaetoseros* hujayrasi atrof bo'ylab o'sgan naqshlarga ega. Dengiz suvlarida tarqalgan va plankton hayot kechiradi.

Patsimonlar (*Pennatophyceae*) sinfi vakillarining tallomi bir hujayrali yoki kolonial shaklda bo'lib, ko'pincha chuchuk suv havzalarida, ayrim vakillari dengiz suvlarida tarqalgan. Hujayralari cho'ziq yoki lansetsimon, ellipssimon, duksimon, ikki tomoni simmetrik tuzilgan. Sovuti patsimon shaklda. Ularning orasida chokli va choksiz vakillari uchraydi. Choklilari biroz harakatchan, choksizlari harakatsiz vakillardan tashkil topgan.

Bu sinf vakillari choklarining mavjudligi va tuzilishiga qarab, quyidagi 7 ta tartibga bo'linadi:

1. Fragilarlilar (*Fragilariales*)
2. Tabellyarlilar (*Tabellariales*)
3. Axnantlilar (*Achnanthes*)
4. Simbellilar (*Cymbellales*)
5. Navikulalilar (*Naviculales*)
6. Batsillalilar (*Bacillariales*)
7. Surirellilar (*Surirellales*)

*Pinnularia* – chuchuk suv havzalari ostida va qirg'oqlarida tarqalgan. Oxakli suvlarda yaxshi o'sadi. Bir hujayrali, ellipssimon yoki chozinchoq shaklda. Tavaqasining o'rtasidan chok o'tgan. Chetlarida parallel qovirg'alar joylashgan. Vegetativ yo'l bilan ko'payadi.

*Navicula* – chuchuk suv havzalarida va ayniqsa dengizlarda tarqalgan. Hujayralarining uchki qarama-qarshi tomonlari ingichkalashganligi bilan pinnulariyadan farqlanadi. Ko'rinishi qayiqchaga o'xshash bo'ladi. Uning ba'zi turlari suvo'tlari va yuksak suvo'tlari ustida epifit xolda yashaydi.

*Gyrosigma* – chuchuk suvlarda, *Pleurosigma* – dengiz suvlarida uchraydi.

*Nitzschia* – har xil suvlardatarqalgan, harakatchan va bentos hayot kechiradi.

*Surirella* – bentos xolda chuchuk suv havzalarida va dengizlarda yashaydi.

*Cymbella* - chuchuk suv havzalari ostida keng tarqalgan. Tavaqasining qorin tomoni botiq, yelka tomoni bo'rtgan bo'ladi. Koloniya hosil qilib yashaydi.

*Gomphonema* – shilimshiqsimon oyoqcha

hosil qilib, substratga yopishgan xolda koloniya hosil qilib yashaydi. Ularning hujayrasi assimetrik bo'ladi.

Coconeis – boshqa suvo'tlari (Vaucheria, Cladophora)ga yopishgan xolda yashaydi. Hujayrasi ellipssimon ko'rinishda.

Bu sinfning Synedra, Fragillaria, Tabellaria, Asterionella turkumlari vakillari harakatsiz va plankton xolda hayot kechiradi.

Diatom suvo'tlarining tarqalishi va ahamiyati. Diatom suvo'tlari tabiatda har xil ekologik sharoitlarda keng tarqalgan bo'lib, ba'zan suv havzalarida aloxida senozlarni hosil qiladi. Suvning kimyoviy tarkibi har xil, yoritilganlik darajasi turlicha, ifloslangan va organik moddalarga boy suvlarda ko'proq

tarqalgan bo'ladi. Ularning tarqalishida suv tarkibidagi azot va fosfor tuzlarining ahamiyati katta. Bunday suvlarda ularning o'sishi tezlashadi.

Diatom suvo'tlari suv havzalarining tarkibini aniqlashda indikator vazifasini bajaradi. Masalan, Planktoniella vakili vositasida okean va ochiq dengizlardagi Golfstrim oqimi aniqlanadi.

Tabiatda plankton diatom suvo'tlarining ahamiyati yuksak. Ular asosiy biomassani hosil qilib, suvdagi umurtqasiz hayvonlar va ba'zi baliq turlari uchun asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Lekin ularning haddan ziyod ko'payib ketishi ham baliq lichinkalariga salbiy ta'sir qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dariyev A. S. va bosh. Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi – Toshkent – “ILM-ZIYO”-2012
2. Tojiboyev Sh. J. va Naraliyeva N.M. Botanika: Tuban O'simliklar – “Namangan” nashriyoti-2016
- Tojiboyev Sh. J. va Qarshiboyeva N.H. Mikologiya Algologiya – Jizzax “Sangzor nashriyoti” – 2014
3. Великанов Л. Л. Ва бошк. Тубан усимликлар – Тошкент-“Укитувчи”-1995
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Diatom\\_suvo'tlar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Diatom_suvo'tlar)
5. <http69s://docx.uz/document/diatom-suvo-tlar-bo-limi-diatomeae-bacillariophyta>